# FARG’ONA TOQIMACHILIGI. QADIMSHUNOSLIK QAZILMALARI.

Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi

ilmiy xodimi: **M. Xusainova**

Jarayonida jamiyat tarixining turli bosqichlari togrisida guvoxlik beruvchi koplab artefaktlar uchraydi .

Biroq sirasini aytganda qadimgi zamonlardan qolgan kiyim kechaklarning parchalari eng noyob topilmalar xisoblanadi. Koxna Termiz shaxarchasi ( Surxandaryo viloyati) xududida joylashgan.

’’Korgon yodgorligi qazilmalari chogida IV –V asrlarga oid gilamlar ip gazlama va shoyidan tikilgan kiyim kechak qoldiklarining yirik yirik namunalari uchragan edi. Munchoqtepa (Namangan viloyati) qabristonidagi erosti daxmalarining kashf qilinishi xam yirik voqea xisoblanadi.

Munchoq tepa qabristonidagi qazilmalar chogida yerosti daxmalariga joylashtirilgan qamishtobutlarda va yakka qabrlarda 25 xolda ip gazlamadan tikilgan kiyim kechaklarning parchalari uchragan edi.

Matolarning qoldiklari gijimlanib chiroq qoplagan ayrim joylari mogor bosgan kiyimlardagi barcha choklar ayrilib – ayrilib ketgan edi chunki shoyi matolar paxta ip bilan yormalangan bolib vaqt otishi bilan iplar chirigan.

Kiyimlarning qisimlari ayqash uyqash ayrim joylari loyga botgan yoki chekkalari qayrilgan edi. Besh yil davom etgan tamr jarayonida matolar kanservantlarning maxsus qorishmasi bilan ulab chiqildi, tekislandi va bir butun kiyim xoliga keltirildi.

Natijada nafis och qizil rangdagi bolalar kuylagi, uzun engli ayollar kuylak mursagi va bir nechta kok jogali qizil shoyi yoqa yuzaga keldi.

Mato bolaklariyu qizil, kok, xavorang shoyi va tafto shoyidan tikilgan belboglar xam shular jumlasiga kiradi.

Demak, qadimgi fargonaliklar marxumlarni kundalik kiyimlarida dafn qilganlar, tiriklar chogida kiyimlarda saqlanib qolgan, tiriklik chogida kiyimlarda saqlanib qolgan dog duglar, etakdagi yamoq, mato uzoq tutilganidan ranglarinning unnukib ketgani, shuningdek, kiyimni qayta tikishdagi igna izlari shundan guvoxlik beradi. Kabrlarning ichidagi topilgan kiyimlar kop xollarda bolak bolak bolib, dastlabki bichik shaklini aniq tasavvur etish qiyin.

Aksar xollarda kiyim qoldiqlari ayollar va bollar qabrlari ichida yaxshi saqlanib qolgan. Ular asosan, kuylaklardan iborat. Kuylaklarning eng uchlari barlarining paski qismiga yana xam ochiqroq rangdagi shoyi tasmalar tikilgan.Rang- barang shoyi bilan oro berilgan kuylaklar xam uchraydi.

Mato qiyqimlaridan bezakli ulama yoqalar xam tikilgan.Ular odatda omiz tevaragini xoshiyalaganlar. Yoqa shakillari xar xil bolgan. Ayollarning kuylaklari uzun bolib, deyarli taqimchaga tushgan.

Boyi 170cm keladigan marxuma ayolning kuylagi uzunligi 125 cm bolgan. Kuylakning yenglari xam uzun. Bollar kuylagi esa, aksincha- bolder ortasigacha yoki undan sal pastroqda tushib turgan.

Qabrlardan birida topilgan, yelkasi, boyni va qoli barmoqlaridagi mayda munchoqlar (marjonlar) kuylaklar boshdan- oyoq munchoqlar bilan tikilganidan dalolat beradi. Shuningdek, ip gazlama matodan tikilgan chopon parchalariga xam shoyi kiyimlar yopishtirib, islimi naqshin bantlar bilan bezak berilgan. Tadqiqotlar shuni korsatadiki, kuylaklarning iktasi shoyidan tikilgan. Kop xollarda qabrlarda faqatgina shoyi yoqalarni uchratdik.

Kuylak bezagining eng qiziqarli elementlaridan biri, xavo rangdagi shoyi tasmalardan tikilgan kapalak nusxa bant xisoblanadi. Ular turli kattalikda- yirik, ortacha va mojazgina bolgan.

Bantlar tort qirrali xoch shaklida bolsa, tortinchisi tasmaning xar ikki uchi chiqib turadigan joyda, bantning ortasi xar ikki tomondan birday qilib boglangan. U kivadirat korinishda bolib, marashtirib tikilgan tasmalardan iborat.

Maskur ikki yoqlama kivadiratning ichkari qismi boshliq bolib, unga tumor solib qoysa boladi. “ Afsun” tuguni bilan boglangan bunday bantlar yoqaga tikib qoyilgan, extimol, ular yoqaning ochiq umizini ximoya qiluvchi sexrli kuchga ega bolgan. Erkaklar va ayollar qabrlarida charm buyum bolaklari xam topilgan, ular bel atrofida va oyoqlarning pastki qismida joylashgan. Ular shubxasiz charm kamar, shunungdek, poyafzal qoldiklari.

Poyabzal poshnasiz yumshoq etik monant bolib, ular xozrgi maslaxatlarning otmishdoshi ekanligini extimoldan xoli emas. Kabr ichidan topilgan yaxlit yogochdan pichoq bilan yonib yasalgan etik qolipi buning dalolati bola oladi. Tatqiqotning zamonaviy uslublari mavjudligi olaroq olimlarimmiz munchoqtepadan topilgan ilk orta asrlarga oid koplab miqdordagi mato bolaklarining qanday tolalardan tayyorlanganligi javob topishdi.

Matolar Xitoy milliy muzeyi va chjenszyandagi fan va texnalogiya labaratoriyasi tadqiq etildi. Munchoqtepada topilgan mato namunalarining aksaryati yaltiroq shoyi (muxayor) bolib, turli xil gullar, shuningdek, shoyi iplardan tortib, shoyi parcha va damishqiy bilan bezaklangan.

Ayni vaqtda, parcha va shunga oxshagan matolar Sugd xududlarida tayorlanib, songra ipak yoli orqali Xitoyga jonatilgan bolishi xam mumkin.

Xitoyning shimoli garbi tomoni, Ozbekistoning sharqiy mintaqasi, yana xam togrirogi, Fargona vodiysida shoyi ishlab chiqarilgani extimolga juda yaqin.

Tolalarni boyash uchun qizil boyoq olinadigan indigo osimliklardan qorishtirib, matolar uchun yorqin va toq rangli boyoqlar ixtiro qilganlar. Munchoqtepa qabristonidan topilgan shoyi matolarning katta jamlanmasi shuni korsatadiki, ilk orta asrlarda fargonaliklar maxalliy shoyi asosida va xitoy texnalogiyalardan foydalangan xolda mato yaratganlar.

Binobarin, mill. Avv. II mingyillik ortalaridan SHinjon ( Sharqiy Tutkiston) orqali shoyi butun markaziy osiyo bozorlariga yoyildi.

Keginchalik markaziy osiyo bozorlariga shoyi tavar sifatida olib kelina boshladi. Biroq xitoyda shoyi ishlab chiqarish texnalogiyasi uzoq vaxtgacha sir saqlanib uning yoyilishiga yo’l qoyilmagan.

Shuni xisobga olgan xolda , taxmin qilish mumkinki, Farg’ona Shoyi ishlab chiqarish eramizning boshida,bevosita xitoy tarzida o’zgartirilgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar**


1. Aminov, Q. *Farg‘ona vodiysi tarixini o‘rganish masalalari.* – Toshkent: Fan, 1997.

2. Asqarov, A. *O‘zbekiston qo‘lyozma va arxeologiya tarixi.* – Toshkent: Ma’naviyat, 2001.

3. Bobomurodov, A. *Farg‘ona to‘qimachilik san’ati: tarixi va rivojlanishi.* – Toshkent: Davr nashriyoti, 2010.

4. G‘afurov, B. *O‘rta Osiyo sivilizatsiyalarining shakllanishi.* – Dushanbe: Irfon, 1989.

5. Muhammadjonov, A. *O‘rta Osiyoda arxeologik tadqiqotlar.* – Toshkent: Fan, 1985.

6. Pugachenkova, G. A. *Drevnee iskusstvo Sredney Azii.* – Moskva: Iskusstvo, 1979.